

Халқаро илмий-амалий анжуман тўплами

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**



**АНДИЖОН МАШИНАСОЗЛИК ИНСТИТУТИ
«РАҚАМЛИ ҲАЁТ ВА ИЖТИМОИЙ ФАНЛАРНИНГ БАРКАМОЛ
АВЛОДНИ ВОЯГА ЕТКАЗИШДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ:
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАР ВА ИСТИҚБОЛ»
ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН**

**“РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ЖИЗНИ И СОЦИАЛЬНЫХ
НАУК В ВОСПИТАНИИ ГАРМОНИЧНО РАЗВИТОГО
ПОКОЛЕНИЯ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ”
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ**

**“THE ROLE AND IMPORTANCE OF DIGITAL LIFE AND SOCIAL
SCIENCES IN THE UPBRINGING OF A HARMONIOUSLY
DEVELOPED GENERATION: CURRENT PROBLEMS AND
PROSPECTS”**

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

12 апрель 2022 йил, Андижон

ИЛМИЙ-МАҚОЛА ВА ТЕЗИСЛАР ТҮПЛАМИ

I-II-шўъба

УДК: 3.37.01/09

ББК: 60-6/8

Рақамли ҳаёт ва ижтимоий фанларнинг баркамол авлодни вояга етказишдаги ўрни ва аҳамияти: долзарб муаммолар ва истиқбол. Халқаро илмий – амалий конференция илмий мақола ва тезислар тўплами.- Андижон: АндМИ, 2022.8766

Масъул муҳаррирлар: и.ф.д.профессор Қ.Х.Муфтайдинов

п.ф.б.ф.д (PhD) И.М.Сирожиддинова

с.ф.б.ф.д. (PhD) Х.М.Жўрабекова

Таҳририят ҳайъати: ф.ф.н.доцент. М.Назаров,

и.ф.н.доцент Г.Базарова,

ф.ф.н.доцент М. Каримова,

т.ф.н.доцент Ш.Сулаймонов,

т.ф.б.ф.д. (PhD) Р.Атахонов,

п.ф.н доцент Г.Умарова

Тақризчилар: ф.ф.д.профессор Л.А.Курбонова, и.ф.д. профессор И.Умаров

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 мартағи 101-F сонли фармойиши билан тасдиқланган 2022 йилда Халқаро миқиёсда ўтказиладиган илмий ва илмий техник тадбирлар режасига мувофиқ, ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Илмий-инновацион ишланма ва технологияларни ишлаб чиқаришга тадбик этишнинг самарали механизмларини яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2018 йил 12 январдаги 24-сон қарорида белгиланган вазифаларни амалга ошириш мақсадида хорижий ва республика олий таълим муассасалари билан ҳамкорликда ҳалқаро илмий-амалий конференция ўтказилди.

Тўплам хорижий ва маҳаллий олий таълим муассасаларининг профессор-ўқитувчилари, олимлар ва тадқиқотчилар, илмий ҳодим ва илмий изланувчилари ҳамда иқтидорли талабалар ва магистрантларнинг илғор хорижий тажриба асосида рақамли иқтисодиётни ҳаётга жорий этилиши истиқболлари, инновацион ривожланишнинг концептуал асослари, тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб этиш масалалари, инсон капитали ва уни банд этиш муаммолари, тадбиркорликни янада ривожлантириш йўналишлари, шунингдек ёш авлодни маънавий-маърифий тарбиялаш масалалари, уларни замонавий дунёкарашларини шакллантириш, диний ва дунёвий илмлар билан куроллантириш, таълим жараёнини замонавий педагогик технологиялар билан мустаҳкамлаш, жамиятда техник тараққиётнинг мухим хусусиятларини белгилаб бериш, фундаментал ва хорижий тилларни чукур эгаллашга қаратилган тадқиқот натижалари илмий мақолаларда ўз ифодасини топган.

Конференция илмий мақолалари илмий изланишлар олиб бораётган профессор-ўқитувчилар, илмий ҳодим-изланувчилар, магистрантлар ва талабалар учун мўлжалланган.

Мазкур тўпламга киритилган материалларнинг мазмуни ундаги статистик маълумотлар ва меёрий ҳужжатлар санасининг тўғрилигига ҳамда танқидий фикр-мулоҳазаларга муаллифларнинг ўзлари масъулдорлар.

Андижон машинасозлик институти, 2022 йил

Якубова Барно Бахтиёрова Каримжонов Шухратжон	Талабалар таълим сифатини таъминлашда таълим технологияларининг ўрни	168
Норбоева Дилноза Орзиқуловна Пўлатов Рўзимурод Фарход ўғли	Янги Ўзбекистонда хотин-қизларга яратилган имкониятлар: таҳлил ва натижалар	172
Kushakova Nargiza Islambayevna	Oilaning ijtimoiylashuvida qadiriyatlarning o`rnini	175
Отабоева Зулфия Фофуровна Фаниева Кумуш Турғунова Барчиной Эркинова Сурайё	Педагогикни талабалар билан ҳамкорлик маданиятини ривожлантириш жараёнида мулоқотнинг аҳамияти	179
Пулатова Одина Хамидовна Абдуғаффорова Г.	Талабаларни мулоқот техникасини ривожлантиришнинг психологик омиллари	183
Тўланов Мамасидик Қодирова Моҳидил	Ёшлиарнинг маънавиятли, маданиятли бўлишида китобнинг ўрни	186
Зайнабиддинов Дилшодбек Кобилович Назаров Наврўзбек	Профессионально - личностное воспитание студентов в процессе занятий физической культурой и спортом	189
Teshayev Doniyor Majid o`g`li	Yuksak ma'naviyatli avlod-uchinchi renessans buniyodkorlari	191
Ухина Татьяна Викторовна Межевникова Ольга Петровна	Трансформация сознания в цифровом пространстве	195
Байжонов Ф.Б.	Таълим жарёни ва педагогик амалиётда гендер ёндашув	199
Ikramova K. Sh.	Mahallalarda “eng yaxshi kitobxon oila” tanlovini tashkil etish	202
Валиев Шерзодбек Икрамиддинович	Таълим жараёнида сунъий интеллект	205
Sharipov Abror Anvar o`g`li	Oliy ta’lim tizimida dars jarayonida raqamli texnologiyalar asosida tayyorlangan video darslardan foydalanish istiqbollari	209
A. B. Suyarov	Talabalarni o’quv va sport faoliyati birligiga moslashish muammolari va ularning yechimlari	212
Umirov Ilhom Iskandar o`g`li	Texnika otm talabalarida texnologik kompetensiyasini shakllantirishning modeli	216
Умиров Илҳом Искандар ўғли	Бўлажак мұхандисларда технологик компетенциясини ривожлантиришнинг педагогик моҳияти	219
Saidov J. D. Allayorov S.P. Saidova G.D.	Talabalarning “ma’lumotlar bazasi” faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish muammolari	223
Ҳамдамов Усмон Эргашевич	Веб-квест технологияси мустақил талимни ташкил қилишнинг самарали шакли сифатида	225
Ulkanov Sardorjon Sodiqjon o`g`li	Ta’lim jarayonida o’qitishning zamonaviy didaktik vositalarini qo’llashning o‘ziga xos xususiyatlari	229
Berkinov Oybek Toxir o`g`li	Axborot urushlari va niqoblanish (jozibalanish) ko‘rinishlari	232

o‘qishning mazmun ma’nosini kuchaytirish, qiziqish, motiv va ehtiyojni shakllantirishni qamrab oladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Hamidov J.A. Bo‘lajak kasb talimi o‘qituvchilarini tayyorlashda elektron o‘quv-metodik majmuadan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari haqida // “O‘rta maxsus, kasb - hunar ta’limi tizimida kadrlar tayyorlash jarayoni mazmuni, o‘qitish vositalari va shakllarining nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish”. Respublika ilmiy - amaliy konferensiyasi materiallari.-Toshkent, 2011, 2- qism. - B.172-174.
2. Hamidov J.A. Kasbiy ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari// Kasb-hunar ta’limi.-Toshkent, 2008.- № 1.-B. 21-23
3. Hamidov J.A., To‘rabekov F. S. O‘quv jarayonida kompyuterli o‘qitish texnologiyasidan foydalanish samaradorligini aniqlash mezonlarini tanlash va asoslash // Maktab va hayot.-Toshkent, 2008.- № 2.-B.
4. Денушкин А. С., Кирилов А. И., Сливина и др. Компьютерные обучающие программы // Информатики и образование. – 1995. - № 3. С. 15-22
5. Андреев А. Педагогика творческого саморазвития: Инновационный курс. – Казань: Из-во КГУ, 1996. – 567 с.

AXBOROT URUSHLARI VA NIQOBLANISH (JOZIBALANISH) KO‘RINISHLARI

*Berkinov Oybek Toxir o‘g‘li
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti*

XX asrning oxiri yangi qurolning paydo bo‘lishi bilan izohlanadi. Gap axborot quroli haqida ketmoqda. Axborot jangi albatta, XX asrdan oldin ham olib borilgan. Biroq uzoq o‘tmishda odamlar muloqot davomida subatdoshga so‘zları, gapishtohanglari, mimikalari, imo-ishoralari orqali ta’sir ko‘rsatib kelishgan. Bugungi kunga kelib, mingyilliklar davomida yig‘ilib borilgan tajriba, kashf etilgan muloqot texnologiyalari yordamida insonning ongiga ta’sir qilish va boshqarish yo‘llari o‘zgarib, samaraliroq va ta’sirliroq bo‘lib qolgan. Shuning uchun, axborot urushi – bu moddiy va ma’naviy sohada ma’lum bir yutuqni qo‘lga kiritish maqsadida odamlarning bir-biriga aniq va yashirin qaratilgan axborot ta’siri harakatidan boshqa hech narsa emas. Axborot urushiga keltirilgan ta’rifdan kelib chiqqan xolda, axborot qurolining qo‘llanishi, avvalambor, jamoa fikri, raqibning mafkurasi bilan ish olib borishni bildiradi. Shunday ekan, har doim o‘zini-o‘zi yo‘q qilish algoritmlarini ishga tushurish yoki keyinchalik ishga tushurish uchun tayyorlab qo‘yish mumkin. “Bugungi kunda, - degan edi, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov – “insoniyat qo‘lida mavjud bo‘lgan qurol-yarog‘lar yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin, hozirgi zamondagi eng katta xavf – insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzlucksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura

maydonlarida bo‘layotgan kurashlar ko‘p narsani hal qiladi”[1]. “Axborot humkronligi tushunchasi va texnologiyasining odamlarga ta’sirini tushuntirish kerak. Bo‘lmasa, ularning tartibsizligi nafaqat xalqlarni yo‘q qilishga, balki zamonaviy jamiyatning o‘limiga olib keladi. Axborot tajovuzini to‘xtatish uchun voqealarning kelib chiqishini tushunish kerak. Bugungi kunda, G‘arbning global madaniy axborot va mafkuraviy axbrotning tarqalishi jahon telekomunikatsion tuzulmalari (misol uchun, Internet) va OAV orqali amalga oshirilmoqda”[2]. Rivojlanayotgan davlatlar, ayniqsa dunyoni egallashga da’vogar davlatlar kundan-kunga axborot urushi muammosiga ko‘proq e’tibor qaratmoqda, chunki uning obyekti – odamlarning ongi, maqsadi esa – omma ongini boshqarishdir. Bu maqsad tabiiyki, axborotning psixologik ta’siri orqali amalga oshiriladi. Axborot quroli odamzod uchun bevosita xavf soladi, axir u kishining ongini o‘zgartirib, borliqni noto‘g‘ri qabul qilishga va kishining o‘limi bilan tugaydigan harakatlargacha undashi mumkin. Axborot urushi haqida bat afsil gapirib o‘tish bugungi kun uchun juda dolzarb hisoblanadi. Birinchidan, ma’lum bir axborot urushini tushunish, odamlarni keyingi xavfdan ogoh bo‘lishi himoya vositasini bajaradi. “Ko‘pincha mamlakatlar o‘z fuqorolari, madaniyati, an’analari va ma’naviy boyliklarini begona davlat axborot ta’siridan saqlash uchun maxsus choralar ko‘rmoqdalar. Milliy axborot manbaalarini himoya qilish va axborot maxfiyligini jahon ochiq tizimlarida axborot almashinuvining saqlab qolish zaruriyati tug‘ilgan. Chunki, bunday ketishda davlatlar siyosiy va iqtisodiy qarama-qarshilik, xalqaro munosabatlarda inqirozga yuz tutishi mumkin. Shuning uchun, axborot xavfsizligi, axborot jangi hamda axborot quroli hozirgi kunda barchaning e’tibori markazida”[3]. Axborot urushi hodisasi qadim zamonlardan buyon insoniyatga ma’lum. Vaziyatni beqarorlashtirish, dushmanni noto‘g‘ri talqin qilish va h.k. uchun har qanday ma’lumotni qo‘llash imkoniyati insoniyatga uzoq vaqtdan beri ma’lum bo‘lgan. Qadim zamonlardan boshlab dushmanqa psixologik ta’sirlardan foydalanish haqida ma’lumot keladi: qo‘rqitish, noto‘g‘ri ma’lumotlar, tinchanish istagi yoki aksincha, dushmanning faoliyatini rag‘batlantirish va h. k. Buning uchun faol mish-mishlar, ya’ni odamlarning ongiga faol ta’sir ko‘rsatadigan ishonchsiz, ammo hissiy jihatdan boy ma’lumotlar ishlatalgan[4]. Axborot urushlari texnologiyasi – bu boshqa “ikki nashr”, chunki ular yomon va foyda keltirishi mumkin. Bularning barchasi Axborot urushi o‘tkazilayotganiga bog‘liq: o‘zini himoya qilish uchun yoki boshqa davlatga qarshi dushmanlik harakatlarini tayyorlash. Birinchi holda, Axborot urushi jamiyat va har bir kishining izchil rivojlanib borayotgani, uning hayotdagi ishonchli qo‘llab-quvvatlashi va ikkinchisi ijtimoiy tanazzulga olib keladi[5].

Axborot urushi davlatda ham, turli mamlakatlar o‘rtasida ham o‘tkazilishi mumkin va kompleks qarama-qarshi kurash jarayonining bir qismidir. Jamiyatga axborot bosimining mavjudligi orqa tomondan siyosiy harakatlarning yoki har qanday o‘zgarishlarga tayyorgarlikning ko‘rsatkichi hisoblanadi. Unda yirik moliyaviy sarmoyalar va sa’y-harakatlarni talab qilmaydi. Axborot urushining samaradorligi jamiyat a’zolarining his-tuyg’ulari va istaklariga asoslangan hayajonlangan tashviqotni tatbiq etishga bog‘liq.

Axborot urushida hukumat tomonidan yaratilgan tuzilmalar, alohida jamoalar, guruhlar va shaxslar ishtirok etishi mumkin. Axborot urushi nafaqat qurolli kurashda, balki tinchlik davrida ham davom etmoqda. Axborot urushi – axborot qarama-qarshilikning eng qiyin turi.

Yuqoridaqilardan shuni xulosa qilish mumkinki, hozirgi virtual olam rivojlangan davrda axborot urushi eng katta xavflardan biridir. Chunki, u orqali g‘araz niyatli kimsalar, tashkilotlar, siyosiy guruhlar va davlatlar o‘z maqsadlarini amalga oshirmoqdalar. Qo‘rqinchli jihat shundaki, axborot urushi barcha sohalarni qamrab oldi, jumladan, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va diniy sohalar shular jumlasidandir. Axborotga ega bo‘lishlik misli ko‘rilmagan darajadagi imkoniyatlarni ochilishiga ham sabab bo‘lmoqda. Shu o‘rinda xitoylik olimlarning axborot to‘g‘risidagi fikrlari yodimga tushdi. Ular shunday deydi: “Kimki axborotga ega bo‘lsa, hokimiyatga ega bo‘ladi. Shu axborotni kerakli joyga tarqata olsa, ikki karra hokimiyatga ega bo‘ladi. Agarda ushbu axborotni tarqalib ketishini olidini olib, o‘zida saqlay olsa, uch karra hokimiyatga ega bo‘ladi”. Bundan ko‘rinib turibtiki, axborot urushining maqsadi ham axborotga ega bo‘lish, axborotni o‘z maqsadi yo‘lida tarqatish va axborotni yashirish. Buning ortidan esa o‘zi xohlagan kuchga, hokimkiyatga ega bo‘lishdir. Shunday tahlikali zamonda yovuz kuchlarning tahdidlaridan himoyalanish uchun yuksak intelektual qobiliyatga, ma’naviy immunitetga, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash muhim va dolzarb masaladir. Biz axborot urushlaridan faqatgina shunday kadrlar yordamida himoyalana olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И.А. “Юксак мънавият – енгилмас куч” Т: “Мънавият”, 2008 – 112 б.
2. Расторгуев С. П. Информационная война/С. П. Расторгуев. - М: Радио и связь, 1999. - 416 с. С. 55
3. Расторгуев С. П. Информационная война/С. П. Расторгуев. - М: Радио и связь, 1999. - 416 с. С. 55
4. Информационная война — Википедия
5. Информационное противоборство в военной сфере http://xn----7sbajahyox3duj.xn--plai/images/data/zhurnal_vks/6-2018/15-21.pdf
6. Корконосенко С.Г. Основы журналистики: учебное пособие / С.Г. Корконосенко. - М.: КНОРУС, 2016. - 272 с.
7. Berkinov O.T. Ijtimoiy tarmoq: yoshlar va "kelajak". Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2022. №3. B.181-186.